

QORAQALPOQ XALQ CHOLG'USI – QOBIZ

Matnazarova Ulbosin Pirnazar qizi

O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Cholg'u ijrochiligi" fakulteti

Xalq cholg'ulari bo'limi 2-kurs talabasi.

Yunusov U.A.

Ilmiy rahbar: Dotsent.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18405111>

Annotatsiya. Mazkur maqolada qoraqalpoq xalqining qadimiy cholg'u asboblari biri — qobuzning kelib chiqishi, tarixiy rivoji va musiqa madaniyatidagi o'rni yoritiladi. Tadqiqotda arxeologik topilmalar, yozma manbalar va xalq og'zaki ijodi materiallari tahlil qilinadi.

Shuningdek, qobuzning tuzilishi, ijro uslubi hamda badiiy imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Maqola qobizni milliy madaniy meros sifatida o'rganish va uni saqlash masalalarining dolzarbligini asoslashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: qobiz, qoraqalpoq musiqa madaniyati, xalq cholg'u asboblari, jirov, dostonchilik.

Аннотация. В статье рассматривается кобуз — один из древнейших народных музыкальных инструментов каракалпакского народа. Освещаются вопросы происхождения, исторического развития и роли кобуза в музыкальной культуре. В ходе исследования анализируются археологические находки, письменные источники и материалы устного народного творчества. Также даётся характеристика конструкции, исполнительских приёмов и художественных возможностей инструмента. Статья направлена на обоснование актуальности изучения и сохранения кобуза как важного элемента национального культурного наследия.

Ключевые слова: кобуз, каракалпакская музыкальная культура, народные музыкальные инструменты, жырау, эпическое исполнительство.

Abstract. The article examines the kobuz as one of the oldest traditional musical instruments of the Karakalpak people. It explores the origin, historical development, and the role of the kobuz in musical culture. The study analyzes archaeological findings, written sources, and materials of oral folk tradition. Particular attention is paid to the instrument's structure, performance techniques, and artistic potential. The article emphasizes the importance of studying and preserving the kobuz as a significant element of national cultural heritage.

Keywords: kobuz, Karakalpak musical culture, folk musical instruments, epic performance, oral tradition.

Qoraqalpoq xalqi qadim zamonlardan boshlab o'zining serqirra va boy musiqa san'atiga ega ekani ma'lum. Ushbu musiqa madaniyatining rivojlanishida cholg'u cholg'ulari muhim o'rin tutib kelgan. Cholg'u cholg'ulari qoraqalpoq musiqa madaniyatida Markaziy Osiyo xalqlari san'ati bilan bir qatorda ko'p asrlik tarixiy ildizlarga ega.

Ularning tarixiy manbalari miloddan avvalgi IV asrga hamda milodiy I asrga mansub bo'lgan Qo'yqirilgan qal'a, shuningdek milodiy III asrga oid Tuproq qal'a yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan.

Xususan, ushbu yodgorliklardan topilgan, shoxli arfa tasviri tushirilgan fragmentlar cholgʻu cholgʻularining qadimiy davrlardayoq mavjud boʻlganini yaqqol tasdiqlovchi muhim dalil hisoblanadi.

Qoraqalpoq xalqi orasida kelib chiqishi jihatidan eng qadimiy musiqa cholgʻularidan biri qobizdir. Qobiz nafaqat qoraqalpoqlar orasida, balki qoʻshni sharq xalqlari — qozoq, qirgʻiz, oʻzbek, uygʻur hamda umuman turkiy tilli xalqlarning koʻpchiligida, shuningdek Ukraina xalqida ham (bandura) uchraydi¹. Cholgʻuning tuzilishi, jirolarning ijro texnikasi va tarixiy manbalar qobizning juda qadimiy musiqa cholgʻui ekanini koʻrsatadi.

XI asrning buyuk olimi Mahmud Qoshgʻariy oʻzining “Devonu lugʻotit turk” asarida musiqa cholgʻulari qatorida “qobiz”, “sibizgʻi” (I jild, 450-bet, Toshkent, 1960), “karnay” (III jild, 259-bet, Toshkent, 1963) kabi cholgʻular nomini qayd etadi. Musiqa nazariyasini mukammal bilgan XVI asrning mashhur musiqachisi Sulton Uvays rubob cholgʻusining tor qismini oʻzgartirib, uni biroz uzaytirish yoʻli bilan qobiz cholgʻuini takomillashtirgan. Ayrim manbalarda qobiz eng qadimiy turkiy musiqa cholgʻularidan biri sifatida tilga olinadi va bu haqda mualliflar qiziqarli hamda keng qamrovli rivoyatlarni keltiradilar.²

Qobiz xalqning qalbiga erta davrlardan chuqur singib ketgan soz ekanligi Qorqit ota haqidagi afsonalarda ham oʻz aksini topgan. Rivoyatlarga koʻra, Qorqit ota Sirdaryo daryosi boʻyida, Qarmanchadan pastroq joyda, togʻ etaklarida dafn etilgan. Uning qabrining ustiga qobizi qoʻyilgan boʻlib, uzoq vaqt davomida har haftaning juma kunlari qobizdan egasini eslatib turuvchi gʻamgin va mungli ohanglar eshitilib turgani aytiladi. Qobiz sadosiga diqqat bilan quloq tutilsa, u goʻyo oʻzining muqaddas egasini “Qorqit, Qorqit” deb chorlayotgandek tuyuladi.³

Qoraqalpoqlar orasida qobiz qahramonlik dostonlarini ijro etuvchi jirolar tomonidan keng qoʻllangan. Jirolar qobiz joʻrligida ijro etiladigan maxsus asarlarga ega boʻlgan. Qobiz asarlari odatda murakkab tuzilishga ega boʻlib, xalq ogʻzaki ijodi bilan chambarchas bogʻliqdir.

Qirgʻiz manaschilari, qozoq jirchilarining hamda oʻzbek baxshilarining ijrochilik sanʼati singari, qoraqalpoq jirolari ijodi ham xalq tomonidan yuqori baholangan. Qobiz cholgʻui vaqt oʻtishi bilan ayrim xalqlarda asta-sekin kamroq qoʻllanila boshlagan va uning oʻrnini boshqa musiqa cholgʻulari egallagan. Biroq qoraqalpoq xalqi orasida qobiz milliy xalq turmushida muhim va barqaror oʻrin egallab kelmoqda.

Qobiz — ikki tor tortilgan musiqa cholgʻui boʻlib, skripka yoki gʻijjak singari kamon (smichok) yordamida chalinadi. U asosan oʻrik va tut daraxtlaridan yasaladi, grifi esa bir tomonga egilgan boʻladi. Qobizning pastki qismi (korpusi) tuya terisi bilan qoplanadi. Grif qismiga ot yoki tuyanining dumidan tayyorlangan torlar taqilib, u odatda kvarta intervaliga sozlanadi. Qobizning tovush diapazoni taxminan bir yarim — ikki oktavani tashkil etadi.

Cholgʻuning umumiy uzunligi 75–80 santimetrdan oshmaydi. Qobiz gʻijjak kabi tizzaga qoʻyib ijro etiladi, biroq torlarni bosishda barmoqlar grifga toʻliq tegmaydi, balki torlar orasida sirgʻalib harakatlanadi. Qobizning paydo boʻlishi haqida xalq orasida turli qiziqarli afsonalar tarqalgan.

¹ T. Adambaeva. “Revalyuciyağa shekemgi qaraqalpaq muzikasi”. Nókis. 1976. 42-b.

² Q. Ayimbetov. “Xalq danalığı”. Nókis. 1988. 72-b.

³ T. Adambaeva. “Revalyuciyağa shekemgi qaraqalpaq muzikasi”. Nókis. 1976. 43-b.

Rivoyatlarga ko'ra, qobiz tovushining nihoyatda yoqimli va jarangdor chiqishi uchun u qalin chakalakzorda o'sgan daraxtdan o'yib yasalgan, usti esa tuyaning terisi bilan qoplangan va torlari otning dumidan tayyorlangan. Shu sababli qobizning tovushi nafaqat yoqimli, balki uzoq masofalardagi qishloqlarga ham aniq eshilib turgan, deb tasvirlanadi. Shu tariqa xalq o'zining sevimli musiqa cholg'usi — qobizni yuksak darajada ulug'lab, mukammal darajaga ko'targan.

Garchi bu rivoyatlarda mubolag'a unsurlari mavjud bo'lsa-da, ular qobiz qadim zamonlardan beri xalqning eng suyuqli ko'ngil ozig'i va ajralmas yo'ldoshi bo'lib kelganini anglatadi.

Qobiz qoraqalpoq xalqining qadimiy va boy musiqa madaniyatini aks ettiruvchi muhim cholg'u asboblardan biridir. Uning kelib chiqishi uzoq tarixiy davrlarga borib taqalib, arxeologik topilmalar, yozma manbalar va xalq og'zaki ijodi orqali tasdiqlanadi. Qobiz Markaziy Osiyo hududida yashagan xalqlarning musiqiy tafakkuri, estetik qarashlari hamda hayot tarzini ifodalovchi noyob madaniy meros sifatida shakllangan.

Yozma manbalarda qobiz haqida Bobur, Darvish Ali, Mahmud Qoshg'ariy kabi tarixiy shaxslarning fikrlari uchrashi, shuningdek, olimlar tomonidan bildirilgan ilmiy qarashlar ushbu cholg'u asbobining o'z davrida keng tarqalgan va yuqori baholanganini ko'rsatadi. Qobizning konstruksiyasi, ijro texnikasi hamda o'ziga xos tembri uning badiiy imkoniyatlarini kengaytirib, dostonchilik, jirovlik va baxshichilik an'analari bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratgan.

Qobiz UNESCOning Nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga 2025-yilda kiritilgan. Qaror UNESCOning Nomoddiy Madaniy Merosni Muhofaza Qilish bo'yicha Hukumatlararo Qo'mitasining (Intergovernmental Committee) 20-sessiyasida, Hindiston poytaxti Nyu-Dehlida 8–13 dekabr 2025-yillarda qabul qilingan.

Bugungi kunda qobiz ijrochiligi amaliyotda kam uchrasa-da, u qoraqalpoq xalqining tarixiy xotirasi, musiqiy merosi va milliy o'zligini ifodalovchi muhim ramz bo'lib qolmoqda.

Shu bois, qobizni o'rganish, ilmiy jihatdan tadqiq etish va uni zamonaviy madaniy muhitda qayta jonlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Qobiz an'analarini saqlash va rivojlantirish qoraqalpoq xalqining bebaho madaniy merosini kelajak avlodlarga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adobiyotlar.

1. T. Adambaeva. "Revalyuciyağa shekemgi qaraqalpaq muzikasi". Nókis. 1976.
2. Q. Ayimbetov. "Xalq danalığı". Nókis. 1988.
3. S. Baxadirova. "Qaraqalpaq qanday xalıq". T. 2017.
4. Кароматов Ф. "Узбекская инструментальная музыке". Т. 1972